

## A.QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON” ROMANINING INGLIZCHA TARJIMASIDA MAQOL VA MATALLARNING IFODALANISHI

Maxliyo Erkinovna Xabibullayeva

G‘arb tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi, TDSHU

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada A.Qodiriyning nafaqat ko‘p qirrali ijodkor bo‘lganligiga urg‘u beriladi, balki uning o‘z asarlarida asosan nimalarni yoritganligiga ham to‘xtalib o‘tiladi. Bundan tashqari adibning asarlarida qo‘llagan badiiy mahorati uning romanlarida ishlatilgan maqol va matallarining inglizcha tarjimalarida qanday berilganligi va bu asliyatga nechog‘lik mos kelganligi o‘rganiladi va misollar asosida tahlil qilinadi. Mazkur maqolaning maqsadi qilingan tarjimani tanqid qilish emas, balki aksincha uning afzalliklarini o‘rganib unga doir fikr va mulohazalar bildirishdan iborat. Bunda asarning o‘zbek tilidagi variantida berilgan iboralar, maqol va matallar ingliz tilidagi tarjimasi bilan qiyoslab, solishtirib o‘rganiladi va bir qancha fikrlar bayon qilinadi.

**Kalit so‘zlari:** A.Qodiri, Mehrobdan chayon, Millatparvarlik va ma’rifatparvarlik, jadidchilik, durdona asar, maqol va matallar, badiiy usul.

**Abstract:** In this article, it is emphasized that A.Qadiri was not only a multifaceted creator, but also what he covered in his works. In addition, the artistic skill used by the writer in his works is studied and analyzed on the basis of examples, how the proverbs and sayings used in his novels are given in English translations and how well this corresponds to the original. The purpose of this article is not to criticize the translation, but rather to study its merits and give opinions and comments on it. In this, the phrases, proverbs and sayings given in the Uzbek language version of the work are compared and compared with the English translation, and a number of opinions are expressed.

**Key words:** A. Qadiri, Scorpion from Mehrob, Nationalism and Enlightenment, Jadidism, masterpiece, proverbs and sayings, artistic method.

### KIRISH QISMI

XX asr o‘zbek adabiyotining ulkan namoyondalaridan biri, o‘zbek romanchiligi asoschisi, buyuk yozuvchi va shoir, hamda tarjimon Abdulla Qodiriyni serqirra ijodkor sifatida har bir kitobxon yaxshi taniydi. Adibning jadidchilik g‘oyalari bilan sug‘orilgan asarlari asosan millatparvarlik va ma’rifatparvarlik ruhida yozilgan bo‘lib xalqni uyg‘onishga, fikrlashga, umrini g‘aflatda o‘tkazmaslikka undaydi. “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorishga sarflash kerak emas.” deydi

A.Qahhor<sup>1</sup>. Darhaqiqat, A. Qodiriy ham o‘z romanlari orqali xalqning milliy ongini uyg‘otmoqchi bo‘ladi va manashunday milliy ruhdagi asarlari orqali millat taqdiriga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishga harakat qiladi. Adibning orzulari bugungi kunda amalga oshdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki uning asarlaridan bugungi kunda nafaqat o‘zbek xalqi, balki boshqa millat vakillari ham bahra olayotganini guvohi bo‘lib turibmiz. Sababi adibimiz asarlari bir qancha dunyo tillariga tarjima qilinib. Sharq va G‘arb mamlakatlarida e’tirof etildi. Jumladan “O‘gan kunlar” asari bir necha marta turli tarjimonlar tomonidan ingliz tiliga o‘girildi.“Mehrobdan chayon” asari ham inglizzabon kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

A.Qodiriy asarlarini o‘qib chiqqan bo‘lsangizda yana qaytadan o‘qigingiz kelaverishi va bunga zarurat sezaverishingiz, undan zerikmasligingizning asosiy sababini adibning kuchli adabiy qurol sanalmish “so‘z” quroldan bekamu-ko‘st foydalanganligida deb tushunaman. Zero, buyuk adibimiz o‘zining quyidagi xikmatlari orqali “So‘z so‘ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Tuzilgan jumlani yozuvchining o‘zagina tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozuvchilik aytmoqchi bo‘lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashilmovchilik solmaslikdadir. Qalam — o‘qlog‘i, adabiyot — ketmon bozori emas. Yo‘sinsiz ravishda xotiraga kelgan har bir so‘zdan jumlalar to‘qimoq fazilat sanalmaydi. So‘z qolip, fikr uning ichiga qo‘yilgan g‘isht bo‘lsin, ko‘pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo‘lib yotsin”<sup>2</sup> fikrni tiniq ifodalashda, to‘g‘ri va aniq bir jumla tuzishda so‘zlarni mos tanlash lozimligini ta’kidlab o‘tishi bejizga emas. Chunki adabiyotda obrazlazlar badiiy til orqali jonlantiriladi va sizda tasavvur uyg‘otadi.

Yozuvchining asarlarini qaytadan o‘qiganingizda ko‘p yangi-yangi qirralarini kashf etib borasiz va ularga berilgan ta’riflar orqali qahramonlarni ko‘z o‘ngingizda gavdalantirishga musharrraf bo‘lasiz. Chunki adib o‘z asarlarida adabiy til me’yorlaridan unumli foydalangan, bundan tashqari ijod mahsullarini turli badiiy milliy koloritlar orqali boyitish bilan birga turli qochiriqlar, kinoya, kesatiq, maqol va matallarni ham o‘rinli ishlata olgan. Bizga ma’lumki, maqollar nutqni bezabgina qolmay, balki asarning yanada ta’sirchanligini, xalqchilligini va o‘ziga xosligini ta’minlaydi. Shu bilan birga so‘z san’atkorlari asarning badiiyligini oshirish, badiiy til ravonligini ta’minalash tinglovchini jalb qila olish maqsadida ham maqol va matallardan foydalinishga harakat qilishadi. Binobarin taniqli tarjimashunos olim G‘. Salomov maqol va matallarga alohida urg‘u berib, ”Agar mendan: tilda ham mo‘jizalar

<sup>1</sup> A.Qahhor adabiyot va hayot haqida.

<sup>2</sup> Qodiriy A. Adabiyot haqida. Aforizmlar.Ziyouz.uz 27.03.2014

bo‘ladimi?- deb so‘rasalar, men: ha agar bo‘lsa, tilning ”mo‘jizasi” undagi maqol, matal va idiomalardir deb javob qilgan bo‘lar edim”deb yozganlar<sup>3</sup>.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Biz Qodiriy asarlarining inglizcha tarjimalarini misollar asosida talqin qilarkanmiz, adibning badiiy usullardan nechog‘lik ustamonalik bilan foydalanganliklarini shohidi bo‘lamiz. Keling siz bilan ushbu badiiylikni yozuvchining “**Mehrobdan chayon**” romanining hamyurtimiz, pedagogika fanlari do’ktori, professor I.M.To‘xtasinovning “**The Scorpion from the Altar**” nomli tarjimasida maqol va matallarning talqinini ko‘rib chiqamiz. Masalan “Mehrobdan chayon” asarida adib Mahdumning ba’zi xislatlarini ta’riflab o‘tayotganida albatta uning salbiy tomonlariga ishora qilib: “Oyni etak bilan yashirib bo‘lmaydur”<sup>4</sup> maqolini ishlatgan. Tarjimon esa uni ”You cannot hide something from other people” deya tarjima qilgan.Ushbu hikmatli so‘zni biz “The moon cannot be hidden by a skirt” shaklida tarjima qilsak ham kitobxon uchun tushunarli bo‘ladi. Navbatdagi misolda adib“Chumchuqdan qo‘rqib tarq ekmagan”<sup>5</sup>deb qo‘rq‘oq odamlarni nazarda tutadi.Tarjimasi esa “Being afraid of a sparrow he did not sew millet”<sup>6</sup> deb beriladi. Ushbu jumlaning tarjimasiga sew o‘rniga plant so‘zidan ham foydalanish mumkin edi. Keyingi “Qush tilini qush tushunadi”<sup>7</sup> maqolimiz tarjimada “The poor will always understand the poor” deb berilgan. Ushbu tarjima ma’no jihatidan asliyatga mos tushgan, chunki so‘zma-so‘z tarjima qilinsa “Kambag‘alni har doim kambag‘al inson tushunadi” jumlesi paydo bo‘ladi. Bu albatta “Qush tilini qush tushunadi” maqoliga mos keladi. Yana “Mishiq oftobga tekinga chiqmaydi”<sup>8</sup> maqoli “Even a cat doesn’t leave on the sun to her warm for nothing” tarzida berilgan. Buni “Even a cat doesn’t sunbathe for free” jumlesi orqali ham ifodalash mumkin deb o‘ylayman. “Qarg‘a qarg‘anining ko‘zini cho‘qimas”<sup>9</sup> maqoli inglizchaga “Crows don’t pick crow’s eyes” jumlesi orqali to‘g‘ri o‘girilgan. Quyidagi “Ignani tuyadek, xasni xaridek ko‘rasiz”<sup>10</sup> maqoli orqali adib “Qo‘rqqanga qo‘sha ko‘rinar” demoqchi bo‘lsa ajab emas. Mazkur maqolning tarjimasida “You make a mountain out of a molehill” kabi muqobil varianti olingan. Bular badiiy jihatdan ham tasviriy jihatdan ham bir-birlariga mos tushgan. “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat”<sup>11</sup> jumlesi “**The scorpion from Altar**” da “Stretch your legs according to your mats” tarzida berilgan bo‘lsa, Ermakovaning “**Days gone by**” tarjimasida “Stretch your legs according to the coverlet” muqobil variant to‘g‘ri

<sup>3</sup> Саломов Г.Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима килиш масаласига доир. Тошкент: Ўзбекистон ССР фанлар академияси нашриёти.-1961.-Бет 3

<sup>4</sup> Qodiriy A.Mehrobdan chayon.-Toshkent: Sharq.-2015.-Bet 14

<sup>5</sup> Qodiriy A. Mehrobdan chayon.- Toshkent: Sharq.-2015.-Bet 41

<sup>6</sup> Qodiriy A.The Scorpion from the Altar.- Toshkent:”Mashhur press”- Bet 38.

<sup>7</sup> Qodiriy A. Mehrobdan chayon.- Toshkent: Sharq.-2015.-Bet 45

<sup>8</sup>Qodiriy. A.The Scorpion from the Altar.- T:”Mashhur press”- 2019.-Bet 144

<sup>9</sup> Qodiriy A.Mehrobdan chayon.-Toshkent: Sharq.-2015.-Bet 249

<sup>10</sup> Qodiriy A.Mehrobdan chayon.-Toshkent: Sharq.-2015.-Bet 213

<sup>11</sup> Qodiriy A.Mehrobdan chayon.-Toshkent: Sharq.-2015.-Bet 177

tanlangan. Negaki, mats – gilamcha ma’nosini anglatsa, coverlet - ko‘rpa ma’nosini bildiradi. Shu sababli ham ba’zi maqollarning muqobillarini tarjimada aynan berish har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, adibimiz asarlari qaysi tilga tarjima qilinishidan qat’iy nazar, kitobxonga o‘zida ifodalagan qadriyatlarimizni, urf – odatalarimizni, eng muhimi o‘zining milliy ruhini saqlagan holda yetib borishi lozim deb tushunaman. Zero, Qodiriy kuchli badiiy mahorat sohibi bo‘lganligi uchun ham asarlarida kinoya, qochiriqlar, chiroyli iboralar, ajoyib maqol va matallardan keng ko‘lamda foydalana olgan. Shuni aytish joizki, yozuvchining romanlarining ko‘pchilikka manzur bo‘lishi va durdona asar sifatida tan olinishiga albatta unda ishlatilgan maqol va matallarning o‘rni ham beqiyosdir. Bular asardagi ta’sirchanlikni, hajviy ruhni va shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi. Adibning asarlari oddiy xalq tushunadigan sodda tilda yozilgan bo‘lsada, undagi badiiylikni, milliylikni va o‘ziga xoslikni ilg‘amaslikni iloji yo‘qligi hech kimga sir emas. Ammo tarjima jarayonida kuzatilgan ayrim maqol va matallarning noto‘g‘ri talqin qilinish, tushirib qoldirilishi yoki oddiygina qilib ta’rif berib ketilishi asarning yuksak saviyasiga putur etkazishi mumkunligidan ogoh bo‘lmog‘imiz va ushbu durdonalarni asramog‘imiz darkor.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Қодирий А. Мехробдан чаён.-Т: “Шарқ”-2015.
2. Qodiriy A. The Scorpion from the Altar.- T:”Mashhur press”- 2019.
3. Қодирий А. Ўтган кунлар.- Т: ”Фафур Ғулом”-1973.
4. Qodiriy A. The days gone by.- T:”Mashhur press”- 2017.
5. Khabibullaeva M.E. The role and Importance of Artistic Translation in novels. International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS) 2022 Impact Factor 9.5 Vol.1 No.6 ISSN 2751-756X
- 6.Хамидов Х.Х. Қодирий асарларидағи мурожаат сўзларнинг миллий ўзгачаликлари ва уларнинг таржимада акс этиши хусусида. Хорижий адабиётшунослик ва таржимашуносликнинг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами). – Самарқанд, СамДЧТИ, 2020. 252 бет.
7. Xabibullayeva M.E Tarjimashunoslikda tarixiy romanlarni tarjima qilish jarayonida uslub muammoi. TDSHU. SHARQSHUNOSLIK ilmiy jurnali. №4 2021. 60-70 betlar
8. Xabibullayeva M. “O‘tgan kunlar” romani tarjimalarida milliylik ifodasi. TDSHU. SHARQ MASH’ALI ilmiy jurnali. №3.2023.25-32 betlar
9. Ikramova, L. Maqol va matallarning milliy-madaniy jihatlari. Журнал иностранных языков и лингвистикиб 2 (6)ю 2021
10. Отражение национальности в турецком переводе романа «Откан Кунлар»  
Хайрулла Хамидов Publication date 2019/5/27 Journal Восточный факел.Issue 1-2 Pages 58-67